

## Charm-poyabzal sanoati - mahalliy drayverlardan biri



Tadbirkorga erkinlik berilsa, qo'llab-quvvatlansa, gurkirab rivojlanishiga Shahrixon tumanidagi "Elegant shoes and" korxonasi yaqqol misol. Dastlab ishni kosibchilik shaklida boshlagan tadbirkor oxirgi to'rt yilda kichik binoda faoliyat yuritib edi. O'tgan yili tadbirkor o'z mablag'i hisobidan 8 million dollarlik yangi korxonani tashkil etdi. Kelajakni inobatga olib, majmua 4 qavatli qilib qurilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur korxonani faoliyati bilan tanishdi.

Uskunalar Turkiya va Xitoydan olib kelingan. Ishlab chiqarishga turkiyalik dizayner va texnologlar jalb qilingan.

Birinchida 60 xil poyabzal va charm mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Hozir bu yerda 500 kishi mehnat qilmoqda. Ikkinchida yana shuncha ish o'rni tashkil etiladi.

Korxonaning asosiy mo'ljali eksport. Joriy yilda bu ko'rsatkichni 4 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Tadbirkor Yevropa bozoriga chiqmoqchi ekanini aytdi. Davlatimiz rahbari bu bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatma berdi.

- Charm sanoati ham drayverga aylanyapti, korxonalar ko'payyapti, - dedi Shavkat Mirziyoyev. - Endi ularga kafolatlangan xomashyoni ta'minlab berish kerak. Ikkinchidan, kasanachilik asosida uyda o'tirgan ayollarni ham jalb qilish zarur. Umuman, bunday ilg'or korxonalar rivojlanishiga ko'mak berib, klasterga aylantirish mumkin.

Mutasaddilarga ilmiy institutlarga buyurtma berib, import bo'layotgan xomashyo materiallarini mahalliyashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Davlatimiz rahbari korxonada ishlayotgan xotin-qizlar bilan suhbatlashdi.

- Bugun Andijonga tadbirkorlikni kengaytirish, barqaror energiya manbalari yaratish, odamlarning daromadini oshirish uchun keldik. Oyliklaringiz qachon oshadi? Chiqarilayotgan mahsulotning bozori

chaqqon bo'lsa. Buning uchun sifat, bilim, malaka kerak. Shu bois xotin-qizlarimizning kasb egallashiga alohida e'tibor qilyapmiz. Ona rozi bo'lsa, oila ham, jamiyat ham rozi bo'ladi, - dedi Prezident.





Manba